

## 5-Mavzu: Yoz, seni sog'indik

### Darsning maqsadi:

- Boris Snegurenkovning "Yoz qayerga berkinadi?" ertagi bilan tanishtirish;
- qorning hosil bo'lishi va tabiatga foydasi haqida ma'lumot berish;
- rollarga bo'lib o'qish ko'nikmasini o'stirish.

**Tayanch so'zlar:** Qish qahri, Yoz, Bahor, kurtaklar.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar.

### Darsning borishi:

#### I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

**Faollashtiruvchi mashq:** Aytilgan so'zlar ichida yoz fasliga tegishlilarini aniqlang.

*Boychechak, qor, jazirama, kurtak, xazon, iyul, maktab.*

#### II. O'tilganlarni takrorlash. (8 daqiqa)

She'rni ifodali o'qitiladi. Bahor haqida tuzilgan matnni so'zlab berishadi.

#### III. Darsning asosiy qismi. (29 daqiqa)

**Amaliy topshiriq:** "**1+so'z**" mashqi.

"Oz" so'zining boshiga bitta tovush qo'shib yangi so'z hosil qiling. Muhokama uchun savollar.

1. Qanday so'zlar tuzdingiz?
2. O'rtog'ingiz tuzgan so'zlarni aytib bering.
3. Kimda jeriklarida uchramagan so'zlar bor?

### Mavzuni tushuntirish.

Darslikda berilgan rasmlar asosida matn tuziladi.

Savollarga javob beriladi.

1. Yoz faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
2. Qor qanday hosil bo'ladi deb o'ylaysiz?

### Matn ustida ishslash.

Boris Snegurenkovning “Yoz qayerga berkinadi” ertagi navbatma-navb at o’qitiladi. Ertak yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Nega Yoz berkinishga majbur bo’libdi?
2. Yoz qayerga berkinibdi?
3. “So’z qotishibdi” deganda nimani tushundingiz?
4. Nima uchun odamlar “Bahor keldi – yoz keldi”, deyishar ekan?

Matndagi notanish so’zlar ustida lug’at ishi o’tkaziladi.

**Ta’qib qilmoq** – ketidan quvmoq, izidan tushmoq.

**Bo’rtmoq** – ko’karib chiqmoq.

**Ranjimoq** – xafa bo’lmoq.

**Yaxlatmoq** – muzlatmoq.

**“Tanlab o’qish”** mashqi.

Quyidagi so’zlar bilan boshlanadigan gaplar topib o’qiladi.

Bu juda ham...            Yoz o’zini...            O’shandan buyon...

**Mashq daftari bilan ishslash.**

Gaplar o’qiladi va voqealar ketma-ketligi aniqlanadi. Yoz faslida tabiatda qanday o’zgarishlar bo’lishi yoziladi. Darslikda berilgan topshiriqlar bajariladi. Bo’g’inlardan maqollar tuzib o’qiladi.

Tez aytish aytiriladi.

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

- Yoz fasli haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Sizga nima qiziq bo’ldi?

#### **V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)**

*Ertakni o’qing va mazmunini so’zlab bering. Yoz deganda ko’z oldingizga nimalar keladi? Javobingizni gul barglarga yozib, rasmini chizing.*

### **6-Mavzu: Oltin kuz**

**Dars maqsadi:**

- Shuratning “Kuz” she’ri bilan tanishtirish;
- Kuz faslida tabiatdagi o’zgarishlar haqida ma’lumot berish;
- To’g’ri va ifodali o’qishga o’rgatish;